

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ZEVGMAK QURILMALARNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Mahmudova Nigora

Qarshi davlat universiteti, dotsent (PhD).

e-mail: nigoraxonim0909@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-2981-6905>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada zevgmaning lingvistik maqomi va uning tilshunoslikdagi turli nazariy talqinlari tahlil qilinadi. Zevgmaning stilistik, sintaktik, sintaktik-semantik, kognitiv va pragmatik yondashuvlar doirasida o'rganilishi yoritilib, mazkur qarashlarning o'zaro mushtarak va farqli jihatlari aniqlanadi. Tadqiqotda zevgmatik qurilmalarning strukturaviy tashkil topishi, umumiy predikatning turli sintaktik va semantik komponentlar bilan munosabati, sintaktik iqtisod, semantik nomutanosiblik, ekspressivlik hamda kommunikativ ta'sirchanlik kabi xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zevgmaning faqat stilistik figura sifatida emas, balki sintaktik, semantik, kognitiv va pragmatik omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanuvchi murakkab lingvistik hodisa ekanligi asoslanadi. Maqolada zevgmaning derivatsion tabiati alohida ta'kidlanib, uning struktur-semantik hosila sintaktik birlik sifatidagi maqomi asoslanadi.

Kalit so'zlar: zevgma, zevgmatik qurilma, lingvistik maqom, stilistik hodisa, sintaktik hodisa, sintaktik-semantik munosabat, derivatsiya, sintaktik iqtisod, semantik nomutanosiblik, kognitiv yondashuv, pragmatik yondashuv, ekspressivlik.

СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЗЕВГМАТИЧЕСКИХ КОНСТРУКЦИЙ

Махмудова Нигора

Каршинский государственный университет, доцент (PhD).

Аннотация.

В статье анализируется лингвистический статус зевгмы и различные теоретические подходы к её интерпретации в языкознании. Рассматривается изучение зевгмы в рамках стилистического, синтаксического, синтактико-семантического, когнитивного и прагматического подходов, выявляются общие и отличительные черты данных концепций. В исследовании рассматриваются структурная организация зевгматических конструкций, соотношение общего предиката с различными синтаксическими и семантическими компонентами, а также такие характеристики, как синтаксическая экономия, семантическая несогласованность, экспрессивность и коммуникативная воздействующая сила. Обосновывается, что зевгма представляет собой не только стилистическую фигуру, но и сложное лингвистическое явление, формирующееся в результате взаимодействия синтаксических, семантических, когнитивных и прагматических факторов. Особое внимание уделяется деривационной природе зевгмы и обосновывается её статус как структурно-семантической производной синтаксической единицы.

Ключевые слова: зевгма, зевгматическая конструкция, лингвистический статус, стилистическое явление, синтаксическое явление, синтактико-семантические отношения, деривация, синтаксическая экономия, семантическая несогласованность, когнитивный подход, прагматический подход, экспрессивность.

STRUCTURAL-SEMANTIC FEATURES OF ZEUGMATIC CONSTRUCTIONS

Mahmudova Nigora.

Karshi State University, Associate Professor (PhD).

Abstract.

This article analyzes the linguistic status of zeugma and various theoretical approaches to its interpretation in linguistics. It examines the study of zeugma within stylistic, syntactic, syntactic-semantic, cognitive, and pragmatic approaches and identifies the similarities and differences among these perspectives. The study considers the structural organization of zeugmatic constructions, the relationship of a shared predicate with different syntactic and semantic components, as well as such features as syntactic economy, semantic incongruity, expressiveness, and communicative impact. It is argued that zeugma should be regarded not merely as a stylistic figure but as a complex linguistic phenomenon resulting from the interaction of syntactic, semantic, cognitive, and pragmatic factors. Particular attention is paid to the derivational nature of zeugma, and its status as a structurally and semantically derived syntactic unit is substantiated.

Keywords: zeugma, zeugmatic construction, linguistic status, stylistic phenomenon, syntactic phenomenon, syntactic-semantic relations, derivation, syntactic economy, semantic incongruity, cognitive approach, pragmatic approach, expressiveness.

Kirish. Jahon va o'zbek tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar zevgmaning mustaqil lingvistik maqomga ega ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, zevgmatik qurilmalarning kauzativ va retsiprok derivatsiya bilan bog'liq jihatlarini o'rganish derivatsion sintaksisning yangi istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois zevgmatik konstruksiyalarni kontrastiv, kognitiv va derivatsion yondashuvlar asosida tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Zevgmatik qurilmalar odatda bitta predikatning ikki yoki undan ortiq argument bilan bog'lanishi asosida yuzaga keladi. Bunda predikat har bir komponent bilan bir xil grammatik munosabatga kirishsa-da, semantik jihatdan turli mazmunlarni ifodalashi mumkin. Natijada sintaktik birlikning mazmuniy hajmi kengayadi va ko'p qatlamli semantik struktura hosil bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi "U eshikni ham, ko'nglimni ham ochdi" gapida *ochdi* fe'li ikki obyekt bilan bog'langan bo'lib, birinchi holatda konkret harakatni, ikkinchi holatda esa metaforik ma'noni ifodalaydi. Shunga o'xshash hodisalar nemis tilida ham keng uchraydi va ular tilning ekspressiv imkoniyatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tilshunoslikda zevgmaning lingvistik maqomini belgilashda bir nechta yondashuvlar shakllangan. Mazkur yondashuvlarning farqlanishi, avvalo, zevgmaning qaysi jihati — stilistik, sintaktik, semantik, kognitiv yoki pragmatik xususiyati ustuvor deb qaralishiga bog'liq. Zeugma qadimiy ritorik an'analardan boshlab nutqning ta'sirchanligini ta'minlovchi figura sifatida o'rganilgan bo'lsa, zamonaviy tilshunoslikda uning sintaktik tuzilishi, semantik nomutanosibliigi, kontekstual-pragmatik xususiyatlari va kognitiv mexanizmlariga e'tibor kuchaygan. E. M. Бергеровская zevgmani ritorik figura sifatida tadqiq etar ekan, uning sintaksis, ellipsis va semantika bilan uzviy aloqadorligini ko'rsatadi hamda zevgmatik konstruksiyaning lingvistik tabiatini faqat stilistik hodisa bilan cheklab bo'lmashligini ta'kidlaydi [Бергеровская 1985: 59–67].

Birinchi yondashuv vakillari zevgmani, avvalo, stilistik hodisa yoki stilistik figura sifatida baholaydilar. Mazkur qarash klassik ritorika va lingvostilistika an'analarga borib taqaladi. I. R. Galperin zevgmani bir so'zning ikki yoki undan ortiq birlik bilan turli semantik munosabatlarda qo'llanishiga asoslangan stilistik vosita sifatida tavsiflaydi; uning fikricha, bunda bir predikat turli obyektlarga nisbatan turlicha ma'nolarni realizatsiya qiladi [Гальперин 1977: 154–155]. I. V. Arnold ham zevgmani ingliz tilining ekspressiv vositalari va stilistik usullari qatorida ko'rib, uning asosiy xususiyatini bir leksik birlikning turli ma'no qatlamlarini bir sintaktik qurilma doirasida aktualizatsiya qilishida ko'radi [Арнльд 2007]. E. M. Бергеровская esa zevgmaning stilistik ta'siri uning semantik va strukturaviy tashkil topishi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatib, zevgmani ekspressiv sintaksis doirasida ham tahlil qiladi [Бергеровская 1984; Бергеровская 1985: 65]. Mazkur yondashuvda zevgmaning asosiy vazifasi nutqning obrazlilikini oshirish, ekspressivlik va emotsional ta'sirchanlikni kuchaytirish, kutilmagan semantik bog'lanish hosil qilish hamda muallifning individual uslubini namoyon etishdan iborat deb qaraladi.

S. A. Lukyanov, Yu. M. Skrebnev, L. I. Matsko, O. M. Matsko, N. N. Romanova va A. V. Filippov kabi tadqiqotchilar ham zevgmatik konstruksiyalarni semantik jihatdan nomutanosib komponentlarning sintaktik jihatdan birlashtirilishiga asoslangan ekspressiv birlik sifatida tavsiflaydilar [Лукьянов 1993: 70–79]. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlarda zevgmaning stilistik funksiyasi uning mohiyatini to'liq qamrab olmasligi ta'kidlanmoqda. Masalan, W. M. Short zevgmaning faqat bezak yoki stilistik vosita emas, balki kontekstda argumentativ va ishontiruvchi funksiyani ham bajarishi mumkinligini ko'rsatadi [Short 2021: 632–648].

Ikkinchi yondashuv tarafdorlari zevgmani sintaktik hodisa sifatida talqin qiladilar. Mazkur yondashuvda asosiy e'tibor zevgmatik konstruksiyaning strukturaviy tashkil topishi, umumiy predikatning bir nechta sintaktik komponent bilan bog'lanishi va takroriy sintaktik elementlarning tushirilishiga qaratiladi. Zeugmaning strukturaviy modelida odatda bitta boshqaruvchi birlik — ko'pincha fe'l — ikki yoki undan ortiq komponentni sintaktik jihatdan birlashtiradi, biroq ushbu komponentlarning boshqaruvchi birlik bilan semantik munosabati bir xil bo'lmaydi. Bu jihat zevgmani oddiy ellipsisdan farqlash uchun ham muhim mezon hisoblanadi. I. V. Kamagina zevgmatik gaplarni ellipsis va boshqa implisit konstruksiyalardan chegaralash masalasini maxsus tadqiq etib, zevgmaning o'ziga xos sintaktik mexanizmlarga ega ekanligini ko'rsatadi [Камагина 2015: 168–174].

Zevgmaning sintaktik tabiati E. M. Бергеровская tadqiqotlarida ham izchil yoritilgan. Olimaning fikricha, zevgmatik konstruksiya umumiy boshqaruvchi komponent atrofida tashkil topgan sintaktik qatorni hosil qiladi va bunda semantik jihatdan turlicha bo'lgan komponentlar yagona grammatik munosabatga kiritiladi [Бергеровская 1985: 59–67]. S. A. Lukyanov esa zevgmatik konstruksiyalarni ularning strukturaviy tashkil topishi, umumiy yoki tayanch komponentning joylashuvi va birlashtirilayotgan komponentlar soniga ko'ra tasniflashni taklif qiladi [Лукьянов 1993: 70–79]. Shu nuqtayi nazardan, zeugma sintaktik iqtisod tamoyili bilan bevosita bog'liq bo'lib, takroriy predikativ birliklarni formal jihatdan qayta ifodalamasdan, ularning mazmuniy aloqasini yagona sintaktik struktura orqali ifodalash imkonini beradi. Biroq zevgmatik konstruksiyani faqat sintaktik qisqarish yoki ellipsis natijasi sifatida baholash uning semantik murakkabligini to'liq izohlab bera olmaydi.

Uchinchi yondashuv zevgmani sintaktik-semantik hodisa sifatida talqin qilishga asoslanadi. Zamonaviy tadqiqotlarda aynan mazkur yondashuv zevgmaning murakkab tabiatini izohlash uchun samaraliroq hisoblanmoqda. Bunda zevgmatik qurilmaning shakllanishi sintaktik tuzilish bilan semantik mazmunning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Bitta predikat sintaktik jihatdan bir nechta komponentni boshqaradi, biroq ularning har biri bilan semantik jihatdan bir xil munosabatga kirishmaydi. Natijada formal sintaktik parallelizm bilan semantik nomutanosiblik o'rtasida

o'ziga xos kontrast hosil bo'ladi. U. Kramer zevgmatik konstruksiyalarda boshqaruvchi birlikning strukturaviy va semantik xususiyatlarini tahlil qilib, zevgmatik koordinatsiyaning aynan shu ikki sath o'rtasidagi munosabat asosida yuzaga kelishini ko'rsatadi [Kremer 2006: 379–395].

R. Tartakovsky va Y. Shen zevgmaning sintaktik-semantik mohiyatini yanada aniqlashtirib, uni sintaktik ikoniklikning buzilishi sifatida izohlashni taklif etadilar. Ularning fikricha, sintaktik jihatdan parallel holatda turgan komponentlar semantik jihatdan bir-biridan sezilarli darajada uzoqlashadi. Shu sababli zevgmada sintaktik shakl semantik tenglik yoki yaqinlikni kutishga asos yaratadi, biroq real semantik munosabat bunday kutilishni buzadi va natijada kutilmaganlik hamda ekspressiv effekt yuzaga keladi [Tartakovsky, Shen 2023]. Mazkur qarash monografiyada ilgari surilayotgan zevgmaning struktur-semantik tabiati haqidagi konsepsiya bilan hamohang bo'lib, zevgmatik konstruksiyaning tashqi sintaktik ixchamligi bilan uning ichki semantik murakkabligi o'rtasidagi munosabatni izohlash imkonini beradi.

Zevgmaning semantik tabiatini tushuntirishda A. Lascarides, A. Copestake va E. J. Briscoe tadqiqotlari ham muhim ahamiyatga ega. Olimlar zevgmatik hodisani ko'p ma'nolilik, kontekstual interpretatsiya va diskursiv koherensiya bilan bog'lab, zevgmatik konstruksiyada bir leksik birlikning turli semantik imkoniyatlari kontekst ta'sirida faollashishini ko'rsatadilar [Lascarides, Copestake, Briscoe 1996: 41–65]. Demak, zevgmatik konstruksiyaning semantik talqini faqat lug'aviy ma'no bilan emas, balki kontekst, predikatning valentlik imkoniyatlari va komponentlar o'rtasidagi diskursiv munosabatlar bilan ham belgilanadi.

Kognitiv yondashuv doirasida zevgmatik qurilmalar inson tafakkurida mavjud bo'lgan konseptual va assotsiativ bog'lanishlarning til orqali ifodalanish shakli sifatida izohlanadi. Bunda sintaktik jihatdan yagona predikat bilan birlashtirilgan komponentlarning semantik nomutanosibligi adresatni ular o'rtasidagi yashirin konseptual aloqani tiklashga undaydi. W. M. Short zamonaviy kognitiv ritorika nuqtayi nazaridan zevgma tarkibidagi metaforik va konseptual munosabatlar nutqning argumentativ imkoniyatlarini shakllantirishini ko'rsatadi. Uning fikricha, zevgma til va tafakkurda mavjud bo'lgan konvensional konseptual bog'lanishlarni aktuallashtirish orqali oddiy stilistik bezakdan ko'ra kengroq kommunikativ vazifani bajarishi mumkin [Short 2021: 632–648].

Shu jihatdan, zevgmatik qurilmalarda turli semantik maydonlarga mansub birliklarning bitta predikat orqali bog'lanishi inson ongida ularni o'zaro munosabatga keltirish jarayonini ham aks ettiradi. Masalan, *The storm sank my boat and my dreams* kabi konstruksiyada *sank* fe'li birinchi komponent bilan bevosita, ikkinchi komponent bilan esa metaforik munosabatga kirishadi. Bunday qurilma adresatdan ikki semantik modelni bir vaqtning o'zida faollashtirishni talab qiladi. Shu sababli zevgmaning kognitiv xususiyati sintaktik paralelizm, semantik nomutanosiblik va konseptual integratsiyaning o'zaro ta'siri orqali yuzaga keladi [Tartakovsky, Shen 2023].

Pragmatik yondashuvda zevgmaning kommunikativ funksiyalari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv vakillari zevgmatik konstruksiyaning nutqdagi samaradorligini uning adresatga ta'siri, kommunikativ maqsadni amalga oshirish imkoniyati, e'tiborni muayyan semantik markazga yo'naltirishi va kontekstual mazmunni faollashtirishi bilan izohlaydilar. A. Lascarides, A. Copestake va E. J. Briscoe zevgmatik interpretatsiyada diskursiv koherensiya va pragmatik prinsiplarning rolini ko'rsatib, zevgmaning ma'nosi faqat grammatik va lug'aviy ma'lumot asosida emas, balki kontekstual omillar orqali ham shakllanishini asoslaydilar [Lascarides, Copestake, Briscoe 1996: 41–65].

Nemis tilidagi badiiy matnlar materiallari asosida olib borilgan tadqiqotlarda ham zevgmaning pragmatik-funksional imkoniyatlari alohida ko'rsatilgan. Xususan, nemis tilidagi zevgmatik konstruksiyalar pragmatik fokuslash vositasi sifatida talqin qilinib, ularning sintaktik jihatdan bir xil, semantik jihatdan esa turlicha komponentlarni birlashtirish orqali adresat e'tiborini muayyan mazmuniy markazga yo'naltirishi ta'kidlanadi. Bunda zevgma sintaksis va semantika o'rtasidagi konflikt asosida shakllanib, badiiy matnda qo'shimcha ekspressiv va pragmatik effekt hosil qiladi.

Shunday qilib, mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirganda, zevgmaning lingvistik maqomini faqat stilistik figura, faqat sintaktik qurilma yoki faqat semantik hodisa sifatida chegaralash maqsadga muvofiq emas. Zevgma ushbu sathlarning o'zaro kesishuv nuqtasida shakllanuvchi kompleks hodisadir. Uning strukturaviy asosi sintaktik bog'lanish va iqtisodiylik bilan, mazmuniy asosi esa predikat va argumentlar o'rtasidagi semantik nomutanosiblik yoki turlicha munosabat bilan, funksional xususiyati ekspressivlik va kommunikativ ta'sir bilan, interpretativ mexanizmi esa kognitiv va pragmatik jarayonlar bilan belgilanadi.

O'z tadqiqotimizda aynan shu kompleks yondashuvdan kelib chiqib, zevgmani derivatsion tabiatga ega bo'lgan struktur-semantik sintaktik birlik sifatida qaradik. Bunday talqinda zevgmatik qurilma tayyor stilistik figura emas, balki dastlabki predikativ munosabatlarning qayta tashkil etilishi, bir nechta propozitsiyaning integratsiyalashuvi, umumiy predikatning turli argumentlar bilan bog'lanishi va sintaktik iqtisod tamoyili asosida hosila konstruksiyaning shakllanishi natijasi sifatida baholanadi. Shu sababli zevgmaning stilistik, sintaktik, semantik, kognitiv va pragmatik xususiyatlari uning derivatsion mexanizmini tashkil etuvchi o'zaro bog'liq komponentlar sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur nazariy xulosa, ayniqsa, zevgmatik qurilmalarning kauzativ va retsiprok derivatsiyasini tadqiq etishda metodologik ahamiyat kasb etadi. Chunki kauzativ va retsiprok munosabatlarning zevgmatik konstruksiya tarkibida yuzaga kelishi oddiy stilistik tanlov emas, balki predikativ struktura, argumentlar tizimi va semantik munosabatlarning qayta tashkil etilishini nazarda tutadi. Demak, zevgmaning lingvistik maqomini belgilashda derivatsion yondashuv uning sintaktik, semantik va funksional xususiyatlarini yagona tizim doirasida izohlash imkonini beradigan kengroq nazariy model sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Береговская Э. М. Проблемы исследования зевгмы как риторической фигуры // Вопросы

- языкознания. – 1985. – № 5. – С. 59–67. – URL: <https://vja.ruslang.ru/ru/archive/1985-5/59-67>
2. Galperin I. R. Stylistics. – 2nd ed., rev. – Moscow: Higher School, 1977. – 331, [3] p. – P. 154–155. – URL: <https://integro.ciniba.edu.pl/integro/191800858898/galperin-ila-romanovic/stylistics>
3. Арнольд И. В. Стилистика. Современный английский язык: учебник для вузов / науч. ред. П. Е. Бухаркин. – 7-е изд. – Москва: Флинта; Наука, 2005. – 384 с. – URL: https://korunb.nlr.ru/queries_catalog.php?p=48&rid=399
4. Береговская Э. М. Экспрессивный синтаксис: учебное пособие к спецкурсу. – Смоленск: СГПИ, 1984. – 92 с. – URL: <https://search.rsl.ru/ru/record/01001239431>
5. Лукьянов С. А. О классификации зевгматических конструкций // Филологические науки. – 1993. – № 1. – С. 70–79. – URL: https://korunb.nlr.ru/query_info.php?query_ID=17245
6. Biagetti E., Zanchi C., Short W. M. Toward the Creation of WordNets for Ancient Indo-European Languages // Proceedings of the 11th Global Wordnet Conference. – University of South Africa: Global Wordnet Association, 2021. – P. 258–266. – DOI: 10.18653/v1/2021.gwc-1.30. – URL: <https://aclanthology.org/2021.gwc-1.30/>
7. Tartakovsky R., Shen Y. The Storm Sank My Boat and My Dreams: The Zeugma as a Breach of Iconicity // Metaphor and Symbol. – 2023. – Vol. 38, No. 2. – P. 162–173. – DOI: 10.1080/10926488.2022.2156796. – URL: <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/10926488.2022.2156796>
8. Камагина И. В. Эллипсис и сходные синтаксические явления в современном русском языке // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. – 2015. – № 1. – С. 168–174. – URL: <https://journals.rudn.ru/semiotics-semantics/article/view/7627>
9. Lascarides A., Copestake A., Briscoe T. Ambiguity and Coherence // Journal of Semantics. – 1996. – Vol. 13, No. 1. – P. 41–65. – DOI: 10.1093/jos/13.1.41. – URL: <https://academic.oup.com/jos/article-abstract/13/1/41/1627055>